



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Jalilova Nafisa Razzoqovna¹, Shaymanova Maftuna Shuhrat qizi²

SamDU dotsenti¹, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi²

O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga frazeologik birliklarni o'qitishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, o'rgatish metodlari hamda o'quvchilar nutqini o'stirishda frazeologik birliklarning o'rni yoritib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: sintaktik birliklar, mazmun jihatdan barqaror birikmalarga o'xshashlik tomonlari va ularning o'zaro farqlanishi, maqollar ustida ishlash darslarini tashkil etish yo'llari.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ga muvofiq yangilanib borayotgann ta'lim tizimi Boshlang'ich ta'lim oldiga ham yangicha talablarni qo'ymoqda. Jumladan, Boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitishning bosh maqsadi o'z fikrini erkin va ta'sirli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalay oladigan, o'zbek tili qonun-qoidalarini ongli o'zlashtirishga hamda nazariy bilimlardan o'rinli va to'g'ri foydalana oladigan, nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishga qaratilgan.



Shu bilan birga ta'lim mazmunining yangilanishida "o'quvchi o'quv jarayonining faol ishtirokchisi" tamoyiliga o'tilgani bois dars jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda noan'anaviy tarzda tashkil etish, o'quvchilarning erkin ijodkorligi va mustaqil izlanuvchanligini oshirish talabi qo'yilmoqda. Bu talablar asosida avvalo, nutq o'stirish turadi. O'quvchilar nutqini o'stirishda lug'aviy birliklar-so'z va frazeologik birliklar (iboralar), tasviriy ifodalar asosiy vosita hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining birinchi o'rinda vazifasi kichik yoshdagi o'quvchilar nutqini o'stirish bo'lib, bu asosan, "Ona tili" va "O'qish" fanlarini o'qitish asosida amalga oshiriladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish tizimida leksik-frazeologik ishlarning o'rni va ahamiyati muhim sanaladi. Umumiyo'rta ta'lim (xususan, Boshlang'ich ta'lim) DTS va o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarda nutqiy kompetensiya elementlari leksik-frazeologik ishlar asosida shakllantiriladi. Ya'ni 1-4 sinf "Ona tili" va "O'qish" fani darsliklarida berilgan matnlar tahlili davomida quyidagi leksik-frazeologik ishlarni amalga oshirish lozim:

1. Leksik-frazeologik birliklarni o'zaro farqlash.
2. Lugat ustida ishlash.
3. Leksik-frazeologik tahlil.

Leksik-frazeologik birliklarni o'zaro farqlashda asosiy e'tibor frazeologik birlik(FB)larni o'rgatishga qaratiladi. Boshlang'ich ta'lim ona tili va o'qish darsliklarida berilgan matnlarda lug'aviy birliklar qatorida frazeologik birliklar ham faol qo'llanilgan bo'lib, mazkur birliklarni maxsus o'rganish o'quvchilar nutqini rivojlantirish, so'zamolligini oshirish, badiiy tafakkurini o'stirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, FB'larni o'rgatishning quyidagi muhim jihatlari bor:

- O'quvchilar FB'larning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishadi;
- FB'larni qo'shma so'zva boshqa lug'aviy birliklardan farqlashni o'rganadi;
- FB'larni sintaktik birlik (so'z birikmasi, gap)lardan farqlashni o'rganadi;



- FBlarning matn (badiiy va ilmiy-ommabop matn)larda anglatgan ma'nosi va vazifasini o'rganadi;

- O'quvchilar nutqi FBlar asosida rivojlanadi.

Tilimizda necha asrlardan beri keng qo'llanib kelayotgan, obrazli fikr ifodasi bo'lmish frazeologik birliklar mavzusi bo'yicha alohida soat (dars) ajratilmagan bo'lsa-da, FBlarni o'rganish va undan nutqda umumli foydalanish ko'nikmasini 1-4 sinflarda butun o'quv yili davomida gap ustida ishlash, matn ustida ishlash, matnlar tahlili, nutq o'stirish, bog'lanishli nutqqa o'rgatish darslarida shakllantirish mumkin.

Darhaqiqat, o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va nutqini o'stirishda FBlarni nutqda qo'llay olishning ahamiyati katta ahamiyatga ega, ularning bu mavzu bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash va ulardan to'g'ri va o'rinli foydalana olish ko'nikmasini hosil qilishda ona tili va o'qish darslarida turli mashqlar tizimidan foydalanish mumkin. Bunda avvalo, FBlarning o'ziga xos leksik-semantik, uslubiy xususiyatlari, ularning qo'llanishiga ko'ra faol va nafaol turlari, lug'aviy va sintaktik birliklarga o'xshash va farqli jihatlarini o'qituvchining o'zi anglab yetishi va ularni o'rgatishning yangi pedagogik texnologiyalarini, o'qitish metodlarini qo'llay olishi lozim.

Frazeologik birliklarni o'rgatish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

Ilk bosqichda FBlarning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, ularning leksik-semantik ma'nolari haqida dastlabki tushunchalar shakllantiriladi. Bu asosan amaliy topshiriqlar va qisman nazariy savol-javoblar orqali amalga oshiriladi.

Asosiy bosqichda FBlarning so'z, qo'shma so'z kabi lug'aviy birliklar hamda maqol, aforizmlar, tasviriy ifodalar kabi barqaror birikmalardan farqlanishi o'rganiladi. Bunda Prof. A.A.Yo'ldoshev talqini bo'yicha, lug'aviy birliklar va frazeologik birliklarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini mashqlar tizimi asosida o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Prof. A.A.Yo'ldoshev "Frazeologik birliklar deb o'rganilayotgan iboralar ayrim xususiyatlari bilan lug'aviy birliklar, xususan, qo'shma so'zlarga yaqinlashadi. Frazeologik birliklar bilan qo'shma so'zlar o'rtasidagi farq struktural

jihatdan emas, balki, semantik-funksional, ya'ni uslubiy jihatdan yaqqol ko'zga tashlanadi" deb ta'kidlaydi [4, 214]. Qo'shma so'zning leksik ma'nosi obraz orqali emas, balki, bevosita ifodalanadi, FBlarda esa ma'no ko'chim (majoz) orqali ifoda etiladi, lekin frazemadagi bu ko'chma ma'no qismlarining nominativ - o'z (atash) ma'nolariga tayanadi.

Haqiqatan, so'z (qo'shma so'z)larda to'g'ri (o'z) ma'no yetakchi bo'lsa, FBlarda obrazli-nominativ ma'no yetakchi bo'lib, ularda obrazli ma'no global xususiyatga ega. Kichik yoshdagi o'quvchilarga mazkur birliklar o'rtasidagi farq va tafovutlarni ularning yosh xususiyati va saviyasini hisobga olgan holda o'rgatish lozim. Bunda har bir birlik – so'z, qo'shma so'z, maqol, aforizmlarni o'zigagina xos bo'lgan maxsus belgilari asosida ajratib olish ko'nikmasi shakllantirib boriladi.

Xullas, FBlarni "Lug'aviy birlik" deb so'z birikmalaridan, "bittadan ortiq so'zdan iborat" deb sodda so'zlardan, "shaklan so'z birikmasi, gapga teng" deb qo'shma so'zlardan, "yaxlitligicha ko'chma ma'no ifodalaydi" deb to'g'ri ma'noli barqaror birikma (maqol, matal va aforizm)lardan farqlashni tizimli mashqlar asosida bosqichma-bosqich o'rgatib borish mumkin.

Yakuniy bosqichda FBlarni sintaktik birliklar – so'z birikmasi, gapdan farqlash, matnlarda qo'llangan FBlarni ajratib olish malakasi shakllantiriladi, nutqda, aynan bog'lanishli nutqda ularning qo'llanish o'rni va vazifalari qisman nazariy o'rgatib borilsa foydadan holi bo'lmaydi.

A.A.Yo'ldoshev frazeologik birikmalarni sintaktik birliklardan faqat kelib chiqish jihatidagina struktural yaqin ekanligini ta'kidlaydi.

Prof. S.N.Muratov esa FBlarni erkin so'z birikmalaridan quyidagi belgilariga ko'ra farqlaydi: 1) semantik yaxlitlik; 2) obrazlilik; 3) ko'chma ma'nolilik [6,130].

Lug'at ustida ishlash boshlang'ich sinflarda nutq o'stirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bunda o'qish, badiiy asarni qayta hikoyalash, materialni o'rganish, bayon va inshoga tayyorlanish bilan bog'liq holda o'quvchilar lug'atini faollashtirishda 1-4 sinf ona tili va o'qish darsliklari matnlarida qo'llanilgan barqaror birikmalar ustida ishlash, o'quvchilar uchun

notanish bo'lgan so'z va FBlarning ma'nosi ustida ishlashda lug'atlardan foydalanish, frazeologik birikmalar ma'nosini o'rganish darslarini o'tkazish, lug'at ustida ishlash mashqlarining turlaridan foydalanish, o'quvchilarda FB (ibora) bilan so'z birikmasini o'zaro farqlash ko'nikmalarining darajasini belgilash ishlarini amalga oshirish mumkin.

Leksik-frazeologik tahlil vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini o'stirish quyidagi uch asosiy omilga bog'liq: birinchidan, matndan so'z va FBlarni ajratishga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, bolalarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit; ikkinchidan, bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi; uchinchidan, nutq o'stirishda o'qituvchining til nazariyasi bilan birga leksikologiya va frazeologiya elementlariga asoslanish ko'nikmasiga bog'liq.

Xullas, boshlang'ich sinf o'quvchilariga FBlarni o'rgatish asosida o'quvchilarning nutqida FBlardan o'rinli foydalanish, ularning ma'nolarini to'g'ri izohlash ko'nikmalarini hosil qilish; FBlarning so'z, qo'shma so'z va so'z birikmalaridan farqini aniq misollar vositasida izohlay olishga o'rgatish; o'quvchilarning nutqini yanada jozibador va ta'sirchanligini oshirish kabi muammolarga yechim bo'ladi deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саломов □. Ма□ол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1961, 162-бет.
2. Жўраева Б. Ма□олларнинг лисоний мав□ейи ва маъновий-услубий □ўлланилиши. Филол.фанлари номзоди...дисс.автореф. – Самар□анд: 2002. – Б. 16.
3. □аниева Ш. Фраzeологизмларнинг тур□ун бирикмалар системасидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, № 1. 94-бет.
4. Йўлдошев. А.А. Принципи составления тюркско-русских словарей. – М.: “Наука”, 1972, -С.214
5. Тихонов А. Н. С.Н.Муратов. Устойчивые словосочетания в тюркских языках. М.: «Наука», 1960, -С 130.
6. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik – Toshkent, Noshir, 2009
7. Rahmatullayev Sh.”O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent, ”O'qituvchi”, 1978. -408 b.
8. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z., O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). – T.: “Yangiyul poligraf service”, 2020.



9. Umarova M., Xamrakulova X., Tojiboyeva T. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik). – T.: “O'qituvchi”, 2019.
10. . Ikromova R., Gulomova X., Yo'ldosheva.Sh., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik). – T.: “O'qituvchi”,, 2020.
11. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva.Sh. Ona tili (3-sinf uchun darslik). – T.: “O'qituvchi”,, 2019.